# NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI
UZSTAT



## Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr  holatiga ko‘ra, birlikda)*

***(O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)***

**Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar** — **21 019** — 125,8 %

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar** — **19 988** — 122,5 %

**Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020- yilda)** — **3 841** — 64,4 %

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



## Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha*
*2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**9 387**



**Mas‘uliyati cheklangan jamiyat**

**3 793**



**Oilaviy korxona**

**68**



**Unitar korxona**

**5 446**



**Xususiy korxona**

**22**



**Aksiyadorlik jamiyati**

**160**



**Boshqa korxonalar**

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, yanvar-oktabr oylarida)*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
*(yanvar-oktabr oylarida, birlikda)*



# Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 33,9 % ga oshdi**




















## Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* **20,3** *% ga oshdi*









**175**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**3 031**



Ishlab chiqarish sanoati

**10**



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

**39**



Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 255 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili – (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 122,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,1 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 96,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,4 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 83,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,3 %) va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 114,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o‘sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 % ga oshdi***











**773**



**Bino va inshootlar qurish**

**109**



**Fuqarolik obyektlarini qurish**

**674**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, qurilish korxonalari va tashkilotlari soni 1 556 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ga oshdi.

Jami qurilish korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili – (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), bino va inshootlar qurish – 105,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 49,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 107,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 43,3 %) fuqarolik obyeklarini qurish – 119,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,0 %) ga o‘sishidir.

# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 % ga oshdi***












2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 193 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha xizmatlar o‘tgan yilga nisbatan – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,6 %);

axborot sohasidagi xizmatlar o‘tgan yilga nisbatan – 133,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,6 %);

noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 131,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,0 %);

dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo‘yicha xizmatlar – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,0 %);

kompyuter dasturlashtirish xizmat-lari o‘tgan yilga nisbatan – 98,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 29,0 %);

aloqa xizmatlarning – 95,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 36,8 %) o‘sishidir.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40,8 % ga oshdi***










2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 534 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 140,8 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 149,7 % ga (jami savdodagi ulushi 75,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 110,6 % ga (jami savdodagi ulushi 16,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 142,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,0 %) o'sishidir.



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,9 % ga oshdi***














2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 288 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ga oshdi.

Jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu:

- sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat – 114,0 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida sohasidagi ulushi 93,4 %);

- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 92,9 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi ulushi 4,5 %);

- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash 120,0 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faoliyat 2,1%) o'sishidir.

# Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 15,1 % oshdi***












2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra tashish va saqlash sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 617 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 115,1 % ga oshdi.

Jami tashish va saqlash sohasida korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili quruqlikdagi va quvur transportida o‘tgan yilga nisbatan – 112,1 % ga (jami tashish va saqlash sohasidagi ulushi 82,5 %);

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati o‘tgan yilga nisbatan – 128,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,3 %);

pochta va kuryerlik faoliyati o'tgan yilga nisbatan – 150,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,9 %);

havo transporti – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,3 %);

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 % ga oshdi***












**94**
Yashash bo‘yicha xizmatlar



**1 197**
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2020- yiningl 1- noyabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 291 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu:

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar – 109,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish sohasidagi ulushi 92,7 %);

- yashash bo’yicha xizmatlarda 136,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish sohasidagi ulushi 7,3 %) o‘sishidir.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra 3 793 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 104 taga yoki 141,1 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 654 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 996 taga yoki 137,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 854 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 137 taga yoki 57,1 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

# Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra 9 387 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2 224 taga yoki 131,0 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 027 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2 003 taga yoki 128,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 037 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 479 taga yoki 19,0 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.



## Xususiy korxonalar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro‘yxatdan o‘tgan xususiy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra 5 446 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 971 taga yoki 121,7 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 983 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 664 taga yoki 115,4 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 841 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 472 taga yoki 35,9 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

*(2020 - yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra 242 tani tashkil etib, ulardan 237 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 26,1 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 34 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)*




## Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

*(2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*



## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



## Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo‘yicha soni

*(2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2020- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Navoiy shahri (23,9 %), Zarafshon shahar (8,0 %), Karmana (15,6 %), Qiziltepa (12,5 %), Xatirchi (12,4 %), Navbahor (9,7 %), Nurota (7,4 %), Uchquduq (4,7 %), Konimex (3,9 %), Tomdi (1,9 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo‘yicha soni

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)*

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Navoiy shahrida (17,4 %), Zarafshon shahrida (8,7 %), Xatirchi (15,0 %), Karmana (13,4 %), Qiziltepa (13,1 %), Navbahor (9,6%), Uchquduq (7,9 %), Nurota (6,4 %), Konimex (5,4 %), Tomdi (3,2 %) tumanlari ulushiga tegishli.



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri -** axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar -** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar -** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘grisidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar -** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar -** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Navoiy viloyati Statistik**
**registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.: 79 223-62-47**